

**GLOBALASHUV JARAYONLARIDA O'ZBEK MILLIY ESTRADA SAN'ATINING YOSHLAR
TARBIYASIDAGI AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14147642>

Qurbonova Feruza Xayrullayevna

*O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yoshlarga oid davlat siyotani yangi bosqichga olib chiqishda yoshlar ongida milliy estrada orqali milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish asosiy vazifasi borasida so'z yuritiladi*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, sa'nat, musiqa, milliy estrada, madaniyat.*

Аннотация: *В данной статье идёт речь о выводе на новый уровень государственной политики в отношении молодежи, посредством национальной эстрады, основными задачами которой является развитие чувства национальной идентичности, высокого художественно-эстетического вкуса и мышления в сознании молодежи.*

Ключевые слова: *Молодежь, искусство, музыка, национальная эстрада, культура*

Annotation. *This article is about bringing to a new level of state policy towards youth through the national variety show, the main tasks of which are to develop a sense of national identity, high artistic and aesthetic taste and thinking in the minds of young people.*

Keywords: *Youth, Art, Music, National variety, Culture*

Bugungi kunda globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarda, barqaror taraqqiyot yo'lida o'zlarining o'rinlariga ega bo'lib bormoqda. Inson omili, jumladan, yosh avlodlarni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish muhim. Davlat va jamiyat boshqaruvida ham, biznesni taraqqiy ettirishda ham, umuman, barcha soha rivojida salohiyatli yoshning alohida o'rni bor. Sababi, ular jamiyat uchun "yangi qon" vazifasini o'taydi. Yangidan-yangi tashabbus-g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda ana shu qatlam yigit - qizlarning nuqtai nazari va sa'y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida 1,8 milliard yosh avlod vakillari bor. Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallashuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallashuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o'rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini

anglamlari va tushunib yetishlari, globalizatsiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar aholining 60% ni tashkil qiladi. Biz yoshlarni O'zbekistonning eng katta va salohiyatli ishchi kuchiga aylantirishimiz kerak. Buning uchun yoshlarning intellektual, jismonan, ma'nan rivojiga investitsiyalar kiritib, ularni O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy jihatdan rivojlanishining yangi bosqichiga olib chiqadigan avlod qilib tarbiyalashimiz zarur.

Bu yo'lda avvalo tarixga nazar tashlashimiz lozimdir. Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shgan, donishmand xalq farzandlarimiz. Buning asosi esa ilm-ma'rifat, bag'rikenglik va o'zlikni anglash ajdodlarimizning doimiy intilishi, maqsad-muddaosi bo'lganidir. Zotan, IX–XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan Birinchi Sharq Uyg'onish davrida ham, butun –dunyoda Temuriylar davri Renessansi deya e'tirof etilgan XIV–XVI asrlardagi Ikkinchi Sharq Uyg'onish davrida ham jamiyatda dinu diyonat mus-tahkam, insonlar dunyoqarashida ma'naviyat qadrlil, davlatchilik tuzumida ilm-fan va ma'rifat ustuvor bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, azal-azaldan xalqimizning ilmu fan, ijodu mehnatga rag'bati baland bo'lib, o'zining yuksak ma'naviyati, imon-e'tiqodi, milliy g'ururi hamda umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan go'zal odob-axloqi bilan hamisha ibrat bo'lgan.

Shu o'rinda yaqin tariximizga nazar soladigan bo'lsak o'tgan asrda paydo bo'lib, rivojlanib, taraqqiy etgan estrada janrlari ijtimoiy-ma'naviy hayotimizga shu qadar kirib bordiki, hatto milliy estrada san'atimiz shakllandi. Milliy estrada bugun yurtimiz madaniyati tizimida o'ta muhim o'rin tutmoqda. Chunki u ommaviy san'at turi sifatida ming-minglab kishilarga birday ta'sir ko'rsatib, hamisha insonlarning ruhiy ehtiyojlarini tezkor qondirish qudratiga ega, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek estrada musiqasi shakllanishi jarayonida an'anaviy xalq musiqasi namunalari muhim zamin bo'lgan. Bunda, asosan, ularning raqsboqligi, yengil ohang usullarida ijro etilgani qo'l kelgan. Ayni payta bu holat o'zbek estrada musiqasining milliylik asosini ham ta'minlovchi muhim vositalardan biri bo'ldi desak, to'g'ri bo'ladi. O'zbek milliy estrada qo'shiqchiligi tamal toshini qo'ygan Botir Zokirovva uning izdoshlari, zamondoshlari Yunus To'rayev, Staxan Rahimov, Alla Iyoshpeva boshqalar o'zbek estradasida milily va nomilliy kuylashuslubini sintezlashtirish natijasida uni shaklan va mazmunan uyg'unlashtirishga erishganlar. Keyingi yillarda mamlakatimizda madaniyat va san'at rivojiga, xususan, milliy estrada san'atini yanada ravnaq toptirish masalasiga katta e'tibor qaratilyapti. Milliy estrada ijrochilik maktablarining yaratilishi sohada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim omil bo'ldi deya baralla ayta olamiz.

2020-yil 2-dekabrda Prezidentimizning “O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4908-sonli qarori e‘lon qilingandan so‘ng nafaqat milliy, balki jahon estradasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan san‘atkorning xotirasiga bag‘ishlab ko‘plab tadbirlar o‘tkazildi, uning kitoblari, qo‘shiqlari jamlangan albomlar, rassom sifatida yaratgan asarlari ko‘rgazmasi taqdimotlari bo‘lib o‘tdi.

2021-yil 16-oktabr kuni esa davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san‘ati institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5261-sonli qarori e‘lon qilindi. Milliy estrada ijrochilik maktablarini yaratish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy salohiyatdan samarali foydalangan holda milliy estrada san‘atini jadal rivojlantirish maqsadida faoliyat boshlaydigan ta‘lim muassasasi soha rivojiga munosib hissa qo‘shishga bel bog‘ladi.

Milliy estrada yo‘nalishini rivojlantirish uchun alohida institut tashkil etishga turtki bo‘lgan omillar, uning boshqa san‘at oliygohlari, umuman, musiqiy bilim beruvchi muassasalardan farqli jihatlari, ta‘lim sifati xususida mutasaddi va mutaxassislarning fikr-mulohazalari inobatga olingan.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Milliy estrada san‘ati instituti tashkil etilishi, avvalo, estrada ijrochiligi yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning ilmiy—ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan ahamiyatli.

Bu yerda yaratiladigan o‘quv-metodik adabiyotlar, notaga ko‘chiriladigan milliy estrada ijrochiligi namunalari, shuningdek, atoqli kompozitor va bastakorlar, xonanda va sozandalar ijodini chuqur o‘rganish milliy estradamiz uchun munosib vakillarni tarbiyalashimizda muhim omil bo‘ladi.

Joriy yilning 16 may kuni Davlatimiz rahbari boshchiligida Toshkent shahrida milliy estrada san‘ati asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykali ochilishi. Shu kunning o‘zidayoq muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada instituti faoliyati bilan tanishib, Milliy estrada san‘atining ertasi bo‘lgan iqtidorli yoshlar bilan uchrashganliklari ularga san‘atimizning buyuk merosini, chuqur o‘rgangan holda O‘zbek milliy san‘ati namunalari tarannum etishlari orqali shubhasiz dunyo sahnalarini zabt eta oladilar.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, xalqimiz, xususan, yosh avlod ongida milliy estrada orqali milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish asosiy vazifa deb belgilandi.

Shunday ekan, beg‘ubor va muhtasham orzu-umidli yoshlarimiz yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan o‘z vaqtida oqilona foydalanib, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz yuksalishiga hissa qo‘shadigan farzadlar bo‘lishiga ishonamiz. Buning uchun esa avvalo bir qator asosiy yo‘nalishlar belgilangan:

-Yoshlarni Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va fidoiylik ruhida tarbiyalash, yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlash, ularning keng qamrovli

bunyodkorlik va yaratuvchanlik jarayonidagi ishtirokini kengaytirishda madaniyat va san'atning rolini oshirish;

–Yosh ijodkorlarning, ayniqsa chekka qishloq va mahallalardagi iqtidorli yoshlarning noyob iste'dodini ro'yobga chiqarish va ular faoliyatini tizimli ravishda keng targ'ib etish maqsadida turli teleradio, internet loyihalarini tashkil etish va o'tkazish;

–Milliy ashula va musiqa merosi, zamonaviy milliy estrada va jahon san'ati durdonalari asosida yoshlarda yuksak badiiy didni shakllantirish;

–Umidli ijodkor va iqtidorli yoshlarni izlab topish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

–O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, madaniyat va san'at borasida yoshlarning intilishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida konsert, festival, ko'rik-tanlov va turli madaniy shou-tomosha tadbirlarini o'tkazish;

–Jahon xalqlari milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atining noyob namunalari keng targ'ib qilish;

– Madaniyat va san'at sohasida o'tkazilayotgan tanlov, festival va turli loyihalarning g'oliblari va yorqin ishtirokchilarining keyingi faoliyatini samarali tashkil etish hamda ular uchun ijodiy maydon yaratish;

–Ilmiy-ijodiy simpozium va konferensiyalar hamda mahorat saboqlarini tashkil etish va o'tkazishdan iboratdir.

Estrada musiqasi - bu kichik shakldagi kuchli mafkuraviy quroldir. U yengil ko'rinishdagi, ommaning ongiga tez singadigan, istalgan g'oyani targ'ib etish qudratiga ega bo'lgan kuchdir. Bunday kuchdan milliy qadriyatlarimizni, jahon shou-biznes bozorida milliy estradamiz o'z qiyofasini saqlab qolishida, kelajak avlodning ma'naviy, tarbiyaviy va estetik qarashlarini ezgulikka yo'naltirishda unumli foydalanish zarur.

Shu bois, estrada musiqasining tarixiy va nazariy jihatlarini o'rganish, yangi shakl – shamoyillarini, tamoyillarini yaratish, istiqbolini belgilashda ixtisoslashgan musiqashunoslik faoliyati - ilmiy qalqon kabi ulkan ahamiyatga egadir, deb hisoblaymiz. Shunday ekan jadal globallashuv jarayonida bugungi kun yoshlarini ma'naviy, tarbiyaviy va estetik qarashlarini ezgulikka yo'naltirishga xizmat qila oladi desak mubolig'a bo'lmaydi.

Ushbu vazifalarni O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti rahbariyati, professor-o'qituvchilari o'z talabalari orqali bajarishiga ishonmiz va Yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishda milliy estrada san'atining o'z o'rni bor deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Umarov M – Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T., 2009
2. Gurevich YE. Istoriya zarubejnoj muziki. 2-ye izd. - M., 2000.

3. Istoriya zarubejnoj muziki. Vip. 1-6. - M., - SPb., 1986- 2001.1 T.-535 s., II t.-277 s., III t.- 533 s., IV t.- 529 s., V t.- 448 s.

4. Karomatov F.M. O'zbek xalq muszika merosi. XX asr. 1-kitob. T., 1978,1982